


**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

1. Minerallashtirilgan sholi somoni bilan armaturalangan issiqlik izolyatsion gips plitalari va yengil devor bloklarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: gips matritsasini armaturalash uchun mahalliy sholi somonining kimyoviy tarkibi, tolalar tuzilishi, namligi, suv shimuvchanligi, zolliligi va biologik barqarorligi o‘rganiladi. Qurilish gipsi sifatida β-modifikatsiyali G-7 AII bog‘lovchi hamda mahalliy ishlab chiqariladigan kimyoviy qo‘shimchalardan foydalaniladi; sholi somonini qaynatmasdan, ikki bosqichli natriyli reagentlarda ivitish, yuvish, disperslash va 0,25 mm elak orqali nazorat qilishga asoslangan tayyorlash usuli takomillashtiriladi. Natriy sulfat, kalsinatsiyalangan soda va kaustik soda miqdori somon tarkibidagi eruvchan moddalarning chiqarilishi, zollilik va tolali massaning saqlanishi bo‘yicha optimallashtiriladi; minerallashtirilgan tolali massaning gips bilan yopishishini kuchaytirish, namlik ta‘sirida shishishini cheklash va biologik zararlanishga chidamliligini oshirish uchun “Frem Nanogips” turidagi qo‘shimcha, plastifikator va gidrofoblovchi komponentlarning maqbul kompleksi aniqlanadi; gips-tolali kompozitning tarkibi, suv-qattiq modda nisbati, aralashtirish ketma-ketligi, presslash yoki qoliplash bosimi va quritish rejimi ko‘p omilli tajriba asosida ishlab chiqiladi. Tolali komponentning taqsimlanishi va gips kristallari bilan kontakt zonasi mikrotuzilmaviy tahlil qilinadi; o‘rtacha zichligi 750–950 kg/m³ va issiqlik o‘tkazuvchanligi 0,18–0,24 Vt/(m·K) oralig‘ida bo‘lgan gips plitalari hamda yengil bloklar olish rejalashtiriladi. Tadqiqotning avvalgi natijalari asosida kompozitsion plita namunasining o‘rtacha issiqlik o‘tkazuvchanligi 0,242401 Vt/(m·K) darajasida ta‘minlanadi va ushbu ko‘rsatkichni yanada kamaytirish imkoniyati aniqlanadi; oddiy gips buyumlariga nisbatan mahsulot massasini 20–25 foizga kamaytirish, solishtirma zarbiy qovushqoqlikni 35–40 foizga, egilishdagi mustahkamlikni kamida 20 foizga oshirish hamda suv shimuvchanlikni 15–25 foizga kamaytirish ko‘zda tutiladi. Mahsulotlarning tovush yutish, yong‘in xavfsizligi va biologik barqarorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi; tajriba mahsuloti sifatida ichki pardozi uchun issiqlik va tovush izolyatsion gips plitasi, yengil pazogrebenli to‘siq plitasi hamda armaturalangan yuk ko‘tarmaydigan devor bloki ishlab chiqiladi. Mahsulotlarning o‘lchamlari, biriktirish elementlari, sirt sifati va montaj texnologiyasi belgilanadi; sholi somonini qurilish mahsulotiga aylantirish orqali qishloq xo‘jaligi qoldiqlarini ochiq maydonda yoqish va tashlab yuborish kamayadi. Gips sarfini 10–20 foizga qisqartirish, mahsulot tannarxini 12–18 foizga pasaytirish, yiliga 15 000 m² plita ishlab chiqarish uchastkasida 500–700 mln so‘m iqtisodiy samara va 8–12 ta yangi ish o‘rni yaratish imkoniyati kutiladi; tadqiqot yakunida sholi somonini tayyorlash va minerallashtirish reglamenti, kompozit tarkibi, plita va blok ishlab chiqarish texnologik yo‘riqnomasi, texnik shart loyihasi, sifat nazorati xaritasi hamda sanoat uchastkasining texnik-iqtisodiy asoslari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Tajriba plitalari va bloklari gips buyumlari ishlab chiqaruvchi korxonada tayyorlanadi. Ularning zichligi, issiqlik o‘tkazuvchanligi, egilish va siqilishdagi mustahkamligi, zarbiy qovushqoqligi, suv shimuvchanligi, tovush yutishi, olovga munosabati va biologik barqarorligi akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyada sinovdan o‘tkaziladi.
--	---

		Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi hamda tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazuvchi korxonaning qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.
--	--	--